

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QISHGA QIZIQTIRISH

Fayziyeva Shamsiya Bekmirzo qizi

*O'zbekiston-Finlandiya instituti*

*Pedagogika fakulteti 2-kurs talabasi*

*Tel: +998(94)7655995*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga qiziqtirish uchun bir qancha tafsiyalar berilgan va bir qancha dars o'tish usullari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *boshlang'ich, savodxonlik, metod, usul, mashq.*

**Annotation:** *In this article, some explanations are given and some teaching methods are explained to make primary school students interested in reading.*

**Key words:** *beginning, literacy, method, exercise.*

**Аннотация:** *В данной статье дается ряд категорий и выделяются некоторые методы обучения, чтобы заинтересовать учащихся начальных классов чтением.*

**Ключевые слова:** *начало, грамотность, метод, прием, упражнение.*

Har bir o'quvchi, har bir inson uchun o'qish, ilm olish eng oliy burchlardan biridir. Lekin boshlang'ich sinf o'quvchilariga buni tushuntirish biroz murakkab masala. Ba'zi o'quvchilar juda ilmga chanqoq bo'lishadi-yu o'yinqaroqligi ham bo'ladi. Shuning uchun pedagoglar bolalarning psixologiyasidan, ularning xarakterlaridan kelib chiqqan holda ularga o'qishni, ilm olishni o'rgatishi zarur. Buning uchun pedagog turli usullardan, metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari bolajonlarni o'qishga o'rgatish uchun boshlang'ich sinf darsliklarida ham bir qator qiziqarli matnlar berilgan. U matnlar o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan turli usullar orqali yaxshi tushuntirib berilsa, o'quvchilar matnning mazmun-mohiyatini tushunib yetishsa albatta o'qishga qiziqib qolishadi. O'quvchilarni o'qishga qiziqtirishda eng muhimi ularni aslo majburlamaslik kerak. Majburlab o'rgatilgan narsa o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanmaydi. Negaki bu vazifani o'quvchi o'zi xohlamasdan bajaradi. O'quvchini qiziqtirish zarur. Shu qadar qiziqib vazifani bajarsinki, u bajargan vazifa butun umr yodida qolsin. Buning uchun o'qituvchining pedagogik mahorati juda kuchli bo'lishi zarur. 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsiligidan 69-sahifasidan joy olgan "Dangasa harflar" matnini olaylik. Ushbu matn mazmuni shundan iborat: Katta O va kishik o harflari qochib ketishadi. Shunda ularsiz so'zlar to'g'ri tuzilmay qoladi. A harfi men O harfi o'rniga ishlatilsamchi degan taklif berganida qirol ruchka norozilik bildiradi. Chunki olam so'zi alam so'ziga aylanib qolar edi. Yaxshiyamki vaqtida 4 va 5 raqamlari qochoq harflarni tutib kelishadi. Bu matn o'quvchilarga tushuntirilishidan avval o'qituvchi tomonidan yaxshilab o'qib beriladi. O'qib berilgach o'quvchilar tomonidan qayta hikoya qilinadi. Shundan so'ng o'qituvchi hayotga bog'lab savollar beradi. Bu savollarga o'quvchilar javob berishadi. Masalan : 1. Dangasalik

deganda nimani tushunasi, siz ham dangasalik qilasizmi? 2.Qochoq soʻzini qanday tushundingiz va bu soʻzni avval ham eshitganmisiz? Qayerda? 3. Agar birorta harf chindan ham yoʻqolib qolsa nima boʻladi? 4. Agar siz harflarni yaxshi bilmasangiz shunga oʻxshash vaziyat boʻlib qolishi mumkinmi? kabi savollar beriladi. Bunday savollarga oʻquvchilar javob berishayotganlarida oʻqituvchi tomonidan javoblarga norozilik mazmunidagi javob qaytarilmasligi zarur. |Oʻquvchilar qolipga tushib, qonun-qoidalardan kelib chiqib emas balki, oʻz fikridan kelib chiqib javob berishi zarur. Shundagina ularning oʻqish savodxonligi, fikrlash darajasi yanada ortadi. Ushbu matnni oʻquvchilarga oʻrnak sifatida koʻrsatish kerak. Chunki oʻquvchilar birorta harfni bilmay qolishsa soʻzlarning yozilishi va soʻzning maʼnosi butkul oʻzgarib ketishi mumkin. Shunda oʻquvchilar tushunishadi. Demak biz bittagina harfni bilay qolsak ham juda koʻp soʻzlar oʻzgarib ketar ekan degan fikr oʻquvchilar ongida paydo boʻlishi kerak. Buni oʻquvchilar yanada yaxshiroq anglab yetishlari uchun matnga asoslangan holda turli metodlardan foydalanib dars oʻtish maqsadga muvofiqdir.Masalan matndan soʻzlar tanlanadi va doskaga yoziladi. Oʻqituvchi u soʻzlarni doskaga yozish jarayonida baʼzi harflarni tushirib qoldiradi. Oʻquvchilar esa tushirib qoldirilgan harflarni topishi kerak boʻladi. Bu mashq orqali bolajonlar matnda eshitgan soʻzlarini takrorlab oladi va tushirib qoldirilgan harflarni topishda ulardan zukkolik talab etiladi.

Oʻquvchilarni qiziqtirish va ularni aqlan rivojlantirish uchun harflar bilan bogʻliq yana bir metoddan foydalanish mumkin. Bunda oʻqituvchi bir soʻz tanlaydi. Masalan, oʻqish soʻzini olaylik. Oʻqish soʻzi toʻrt harfli soʻz boʻlganligi uchun toʻrt nafar oʻquvchi doskaga chiqariladi. Ularga shu toʻrtta harf boʻlib beriladi. Shunda oʻqituvchi tomonidan shu harflar qatnashgan soʻzlar aytiladi. Masalan, ish soʻzini aytadi. Shunda oʻ va q harflari berilgan oʻquvchilar joylarida qoladi, i va sh harflari berilgan oʻquvchilar esa bir qadam oldinga chiqadi va tartib bilan turib shu soʻzni hosil qilishlari kerak boʻladi. Ushbu oʻyin tarzidagi mashqimiz shu tariqa davom etadi. Bu mashq orqali oʻquvchilar aytilgan soʻzlardagi harflarning ketma-ketligini yozib emas balki hayolan tasavvur qilib oʻzlari tuzadilar. Shu kabi mashqlardan, oʻyinlardan foydalanib oʻquvchilarga dars mashgʻulotlari oʻtilsa oʻquvchilar albatta oʻqishga va dars jarayonlariga qiziqishadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Qunduzxon Husanboyeva, Mutallib Hazratqulov, Shaxlo Jamoldinova “ Boshlangʻich sinflarda adabiyot oʻqitish metodikasi” “Innovatsiya-Ziyo” ,2020.

2.Qunduzxon Husanboyeva “ Adabiyot oʻqitish metodikasi va muammoli taʼlim” “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.

3.Qunduzkhon Husanboyeva “ Literature as a factor for development of morality and independent thinking” “TAMADDUN” ,Toshkent-2016.

4.Saviya.uz

5. Arboblar.uz

6.Ziyouz.com